TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR
Vol 3. No 5,

HOKIM YORDAMÇILARI VA HUDUDIY TA'LIM MUASSASALARI HAMKORLIGIDA BIZNES-LOYIHALARNI IŞLAB ÇIQIŞ VA AMALGA OŞIRIŞNING YANGI MEXANIZMI

Suyunov Jamşid Bekmuradoviç
Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Samarqand viloyati hududiy filiali, hokimliklar va tarmoq korxonalari xodimlari malakasini oşiriş kurslarini taşkil qiliş böyiça boş mutaxassis
E-mail: jamshidsuyunov8083@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirişda hokim yordamçilari va hududiy ta'lim muassasalari örtasidagi hamkorlikning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. "Uçlik spirali" va hamkorlikdagi boşqaruv konsepsiyalari asosida "mahalla – ta'lim muassasasi – moliya instituti" hamkorligiga tayangan biznes-loyihalarni işlab çiqiş va amalga oşirişning yangi mexanizmi taklif etilgan. Mexanizm iştirokçilarining vazifalari, loyiha jarayonining bosqiçlari va kutilayotgan natijalar asoslab berilgan hamda uni joriy etiş böyiça takliflar işlab çiqilgan.*

Kalit sözlar: *hokim yordamçisi, hududiy ta'lim muassasasi, biznes-loyiha, hamkorlik mexanizmi, uçlik spirali, loyihaviy ta'lim, mahalla, tadbirkorlik.*

Abstract. *The article analyses the theoretical foundations and practical opportunities of cooperation between assistants to khokims and regional educational institutions in developing entrepreneurship in mahallas. Drawing on the triple helix and collaborative governance concepts, a new mechanism for developing and implementing business projects is proposed, based on the partnership of "mahalla – educational institution – financial institution". The functions of the participants, the stages of the project process and the expected results are substantiated, and proposals for introducing the mechanism are put forward.*

Keywords: *assistant to the khokim, regional educational institution, business project, cooperation mechanism, triple helix, project-based learning, mahalla, entrepreneurship.*

Kiriş

Özbekistonda mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantiriş, aholi bandligini ta'minlaş va kambağallikni qisqartiriş vazifalarining asosiy ijroçisi sifatida hokim yordamçilari instituti şakllandi. Prezidentning 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-son Farmoniga köra, hokim yordamçilari xonadonbay örganiş asosida mahallaning tadbirkorlik salohiyatini aniqlaş, aholiga oilaviy tadbirkorlik dasturlari va imtiyozli kreditlarni olişda kömaklaşiş vazifalarini bajaradi [1]. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi 450-son qarori bilan esa har bir mahalla uçun "ösiş nuqtalari" va "drayver" loyihalarni belgilovçi konsepsiya işlab çiqiş tartibi joriy etildi [2]. Mahalla darajasida tadbirkorlikni rivojlantiriş Yangi Özbekistonning

taraqqiyot strategiyasi [3] va «Özbekiston – 2030» strategiyasida [4] ham kambağallikni qisqartirişning asosiy yöli sifatida belgilangan.

Amaliyot şuni körsatadiki, hokim yordamçisi bitta mahallada yuzlab xonadonlar bilan işlaydi va har bir tadbirkorlik ğoyasini professional darajadagi biznes-loyihaga aylantiriş uçun yetarli vaqt, metodik vosita va mutaxassislik bilimiga ega bölmaydi. Şu bilan birga, hududlarda oliy ta’lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunarga öqitiş markazlari va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining hududiy filiallari kabi katta intellektual salohiyatga ega tuzilmalar faoliyat yuritmoqda. Ularning salohiyatini mahalla ehtiyojlariga yönaltiriş orqali biznes-loyihalarni işlab çiqiş va amalga oşirişning yangi mexanizmini yaratiş dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ta’lim muassasalarining hududiy iqtisodiy rivojlanişdagi örni G. Itskovits va L. Leydesdorff tomonidan işlab çiqilgan “uçlik spirali” modelida asoslab berilgan. Uşbu modelga köra, innovatsion rivojlaniş universitet, sanoat va davlat örtasidagi özaro ta’sir natijasida yuzaga keladi, bunda har bir iştirokçi qisman boşqasining vazifalarini ham bajara boşlaydi [5; 6]. B. Klark esa “tadbirkor universitet” konsepsiyasini ilgari surib, oliy ta’lim muassasasi öz hududining iqtisodiy ehtiyojlariga faol javob beruvçi subyektga aylanişi lozimligini ta’kidlagan [7].

K. Ansell va A. Geş “hamkorlikdagi boşqaruv” konsepsiyasini davlat organlari va nodavlat iştirokçilar umumiy qarorlarni rasmiy, konsensusga yönaltirilgan va muntazam muloqot asosida qabul qiladigan boşqaruv tartibi sifatida ta’riflaydi hamda uning muvaffaqiyati boşlanğiç şart-şaroitlar, institutsional dizayn va yetakçilikka boğliqligini körsatadi [8]. E. Ostrom esa davlat xizmatlari sifati davlat va fuqarolar ularni birgalikda yaratganda (“hammualliflikda işlab çiqariş”) oşişini asoslagan [9]. D. Kolbning tajriba orqali öqitiş nazariyasi talabalarni real loyihalarga jalb etiş öquv jarayonining samaradorligini oşirişini körsatadi [10]. Biroq uşbu konsepsiyalarni hokim yordamçisi va mahalla kabi milliy institutlarga tatbiq etiş masalalari hozirça yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli va institutsional yondaşuv, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiya, taşkiliy modellaştiriş hamda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Mahalla tizimi, tadbirkorlikni qöllab-quvvatlaş va kadrlar malakasini oşirişga oid normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy ilmiy manbalar hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Samarqand viloyati hududiy filialida hokim yordamçilari uçun ötkazilayotgan malaka oşiriş kurslari tajribasi umumlaştirildi.

Tahlil va natijalar

Hamkorlik zaruriyatining asoslari. Hokim yordamçilari va hududiy ta’lim muassasalari örtasidagi hamkorlik zaruriyati quyidagi omillar bilan belgilanadi. Birinçidan, resurslarning özaro töldiruvçanligi: hokim yordamçisi mahalla aholisi, uning ehtiyojlari va mavjud resurslar haqida birlamçi ma’lumotga ega, ta’lim muassasasi esa iqtisodiy tahlil, biznes-rejalaştiriş, marketing va texnologik bilimlarga ega. Ikkinçidan, kadrlar tayyorlaş sifatini

oşiriş ehtiyoji: talabalar real mahalla loyihalari ustida işlaş orqali amaliy könikmalarga ega böladi. Uçinçidan, davlat tomonidan ta’lim muassasalarining hududiy rivojlanişdagi rolini kuçaytiriş vazifasi: Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi 904-son qarorida Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining hududiy filiallari tomonidan hokim yordamçilari uçun mahallada tadbirkorlikni rivojlantiriş masalalari böyiça malaka oşiriş kurslarini taşkil etiş, tadbirkorlik va startap taşabbuslarini qöllab-quvvatlaş vazifalari belgilangan [11].

Yangi mexanizmning mazmuni. Taklif etilayotgan mexanizm “mahalla – ta’lim muassasasi – moliya instituti” hamkorligiga asoslanadi va uçlik spirali modelining hududiy şakli sifatida qaraladi. Mexanizmning mohiyati şundan iboratki, har bir hududiy ta’lim muassasasiga tuman hokimligi bilan tuzilgan hamkorlik şartnomasi asosida muayyan mahallalar biriktiriladi. Hokim yordamçisi mahallada aniqlangan tadbirkorlik taşabbuslarini “buyurtma” sifatida ta’lim muassasasiga taqdim etadi, professor-öqituvçilar rahbarligidagi talabalar loyiha guruhlari esa ularni biznes-loyiha darajasiga yetkazadi. Tayyor loyihalar bank va boşqa moliya institutlari vakillari iştirokidagi ekspert kengaşida himoya qilinadi. Iştirokçilarning vazifalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Biznes-loyihalarni işlab çiqiş mexanizmida iştirokçilarning vazifalari

Iştirokçi	**Asosiy vazifalari**	**Iştirokdan manfaati**
Hokim yordamçisi	Taşabbuslarni aniqlaş, taşabbuskor va loyiha guruhini boğlaş, joylarda tösiqlarni hal etiş, loyihani kuzatib boriş	Sifatli tayyorlangan loyihalar, yaratilgan iş örinlari
Oliy ta’lim muassasasi, texnikum	Loyiha guruhlarini şakllantiriş, bozor tahlili va biznes-reja tayyorlaş, ilmiy-metodik maslahat	Talabalar amaliyoti, ilmiy tadqiqot uçun ma’lumot, hududdagi nufuz
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hududiy filiali	Hokim yordamçilarini öqitiş, metodikani işlab çiqiş, ekspert kengaşini muvofiqlaştiriş	Malaka oşiriş dasturlarining amaliy natijadorligi
Kasb-hunarga öqitiş markazlari	Taşabbuskorlarni kasbga va texnologik jarayonlarga öqitiş	Bitiruvçilarning bandligi
Banklar va jamğarmalar	Loyihalarni baholaş, moliyalaştiriş şartlarini belgilaş	Kredit portfelining sifati

Mexanizmning amalga oşiriş bosqiçlari. Mexanizm quyidagi bosqiçlar asosida amalga oşiriladi. Birinçi bosqiç – taşkiliy: tuman hokimligi va ta’lim muassasalari örtasida hamkorlik şartnomalari tuziladi, mahallalar biriktiriladi, mas’ul öqituvçilar tayinlanadi. Ikkinçi bosqiç – taşabbuslarni şakllantiriş: hokim yordamçisi mahalla ixtisoslaşuvi va “daftar”larga kiritilgan fuqarolar ehtiyojlaridan kelib çiqib taşabbuslar röyxatini taqdim etadi. Uçinçi bosqiç – loyihalaş: talabalar guruhi taşabbuskor bilan birgalikda bozor tahlili, xarajatlar smetasi, daromadlar prognozi va kreditni qaytariş jadvalini tayyorlaydi; bu iş kurs işi, malakaviy amaliyot yoki bitiruv işi sifatida hisobga olinadi. Törtinçi bosqiç – himoya va moliyalaştiriş: loyihalar ekspert kengaşida körib çiqiladi va moliya institutlariga yönaltiriladi. Beşinçi bosqiç – hamrohlik: loyiha işga tuşgandan keyin ta’lim muassasasi va hokim yordamçisi uning faoliyatini birgalikda kuzatib boradi, muammolar yuzaga kelganda maslahat beriladi.

Uşbu mexanizmning muhim jihati – ikki tomonlama ta’lim samarasidir. Hokim yordamçisi malaka oşiriş kurslarida egallagan bilimlarini darhol amaliyotda qöllaydi, talabalar esa nazariy bilimlarni real iqtisodiy muhitda sinab köradi. Bu D. Kolb ta’kidlagan “tajriba – mulohaza – umumlaştiriş – sinaş” siklini har ikki tomon uçun ta’minlaydi [10]. Natijada ta’lim muassasasi hududning “loyiha fabrikasi”ga, hokim yordamçisi esa mahalla va ilm-fan örtasidagi köprikka aylanadi.

Mexanizmni joriy etişdagi xavf-xatarlar. Mexanizmni joriy etişda ayrim xavf-xatarlarni hisobga oliş zarur: hamkorlikning rasmiyatçilikka aylanib qolişi va loyihalar faqat hisobot uçun tayyorlanişi; talabalar tayyorlagan loyihalar sifatining bir xil emasligi; öqituvçilarning bu faoliyatga sarflagan vaqti öquv yuklamasida hisobga olinmasligi; hokim yordamçilarining boşqa vazifalar bilan haddan taşqari band bölişi. Uşbu xavflarni kamaytiriş uçun loyihalarni baholaşning yagona mezonlari, öqituvçilarni rağbatlantiriş tizimi va natijalarni oçiq e’lon qiliş amaliyoti joriy etilişi lozim.

Xulosa va takliflar

Ötkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Hokim yordamçilari va hududiy ta’lim muassasalari resurslari özaro töldiruvçi xususiyatga ega bölib, ularning hamkorligi mahallada aniqlangan taşabbuslarni sifatli biznes-loyihalarga aylantirişning samarali yölidir. “Mahalla – ta’lim muassasasi – moliya instituti” hamkorligiga asoslangan mexanizm uçlik spirali modelining hududiy şakli bölib, u bir vaqtning özida tadbirkorlikni rivojlantiriş, kadrlar tayyorlaş sifatini oşiriş va hokim yordamçilari malakasini amaliy mustahkamlaş vazifalarini hal etadi.

Mexanizmni joriy etiş uçun quyidagilar taklif etiladi: tuman hokimliklari va hududiy ta’lim muassasalari örtasida mahallalarni biriktiriş böyiça namunaviy hamkorlik şartnomasini işlab çiqiş; mahalla biznes-loyihalari ustida işlaşni talabalarning malakaviy amaliyoti, kurs va bitiruv işlari sifatida rasman tan oliş; Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hududiy filiallari negizida loyihalarni baholovçi tumanlararo ekspert kengaşlarini taşkil etiş; loyihalarga rahbarlik qilgan professor-öqituvçilar mehnatini öquv yuklamasida hisobga oliş va rağbatlantiriş; hamkorlik natijalarini – tayyorlangan, moliyalaştirilgan va barqaror faoliyat yuritayotgan loyihalar sonini – hokim yordamçilari va ta’lim muassasalari reytingiga kiritiş.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantiriş, aholi bandligini ta’minlaş va kambağallikni qisqartiriş böyiça davlat siyosatining ustuvor yönalişlari töğrisida”gi PF-29-son Farmoni. – lex.uz.
2. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantiriş, aholi bandligini ta’minlaş va kambağallikni qisqartiriş böyiça tuman (şahar) hokimi yordamçilari faoliyati samaradorligini yanada oşirişning namunaviy konsepsiyasini va uni 2022-yilda amalga oşiriş böyiça çora-tadbirlar rejasini tasdiqlaş töğrisida”gi 450-son qarori. – lex.uz.
3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga möljallangan Yangi Özbekistonning taraqqiyot strategiyasi töğrisida”gi PF-60-son Farmoni. – lex.uz.
4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«Özbekiston – 2030» strategiyasi töğrisida”gi PF-158-son Farmoni. – lex.uz.
5. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Dynamics of Innovation: From National Systems and “Mode 2” to a Triple Helix of University–Industry–Government Relations // Research Policy. – 2000. – Vol. 29, No. 2. – P. 109–123.
6. Etzkowitz H. The Triple Helix: University–Industry–Government Innovation in Action. – New York: Routledge, 2008.
7. Clark B.R. Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. – Oxford: Pergamon, 1998.
8. Ansell C., Gash A. Collaborative Governance in Theory and Practice // Journal of Public Administration Research and Theory. – 2008. – Vol. 18, No. 4. – P. 543–571.
9. Ostrom E. Crossing the Great Divide: Coproduction, Synergy, and Development // World Development. – 1996. – Vol. 24, No. 6. – P. 1073–1087.
10. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984.
11. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi “Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi faoliyatini samarali taşkil etiş çora-tadbirlari töğrisida”gi 904-son qarori. – lex.uz.